

USHLAB TURISH MAJBURLOV CHORASINING PROTSESSUAL TARTIBI

Maxmudov Muzaffar Maksud o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Tel:+998993942430

muzaffarmaxmudov2430@gmail.com

Rus huquqshunos olimi Y.Sinelshikovning fikricha, "Protsessual majburlov choralarini qo'llash bazonasi bilan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlari asossiz cheklab qo'yilishi mumkin emas. Huquqni muhofaza qiluvchi har qanday mansabdor shaxs inson huquq va erkinliklarini noo'rin cheklovchi va kamsituvchi xatti-harakatlarni amalga oshirmasligi va bunday holatlarga befarq munosabatda bo'lmasligi kerak" – deb, ta'kidlagan[1].

Amaldagi qonunchilik normalari talablariga binoan, ushlab turilgan bironta shaxsga nisbatan qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, shuningdek qonunga xilof boshqa choralar qo'llash mumkin emas. Ushlab turilgan gumon qilinuvchiga jismoniy yoki ruhiy xarakterdagi tazyiqlar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushlab turilgan shaxsning huquqiy holatidan foydalanib, uni jinoyat sodir etganlikda iqrar bo'lishga, o'zini yoki boshqa shaxslarni fosh etish to'g'risidagi ko'rsatuvlarni berishga majburlash taqiqlanadi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish jinoyat sudlov vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'pincha kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda qo'llanadigan, shaxsni qisqa muddat jamiyatdan ajratilgan holda saqlab turishdan iborat bo'lgan preventiv protsessual majburlov choralaridan biridir.

Ushlab turish quyidagi maqsadlarda qo'llanadi: jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning jinoiy faoliyatini oldini olish; dastlabki tergov va suddan bo'yin tovlashning oldini olish; ushbu shaxsning haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiladigan urinishlariga yo'l qo'yimaslik, ya'ni jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni yashirish yoki yo'q qilib yuborishning oldini olish; ushlangan shaxsning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini aniqlash.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari huquqshunos olimlaridan biri I.L.Petruxin jinoyat protsessual majburlov choralaridan biri hisoblanadigan ushlab turishni ikkita alohida guruhga ajratib talqin etgan: birinchi guruhga mansub bo'lgan ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar surishtiruv va dastlabki tergovni olib borish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar - jamoat tartibini saqlash funksiyasini bajarayotgan ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek muomalaga layoqatli har qanday shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur shaxslarga qo'yiladigan asosiy talab, ular ushbu harakatni amalga oshirish davomida yoki undan keyin darhol huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish yoxud ushlab turishdan oldin shu joyda bo'lgan huquqni muhofaza qilish organi xodimiga murojaat qilib, uning yordamidan foydalanishi lozim.

Ikkinchi guruhga esa Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin ushlab turishga faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning qaroriga muvofiq yo'l qo'yiladi. Bunda ushlab turishning har ikki turi ham jinoyat-protsessual ushlab turish deb e'tirof etilishi, ushlab turish muddatlari esa tergov hibxonalarida qamoqda saqlash, ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatlarini hisoblashda e'tiborga olinishi lozim. Shaxs surishtiruv organiga keltirilganida, kelgusida

jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoki qo'zg'atilmashligidan qat'i nazar, zudlik bilan bu haqda bayonnoma tuzilishi kerak".

V.V.Vandishevning fikricha, ushlab turish majburlov chorasining ikki xil turi mavjud bo'lib, bular ushlab turishning faktik va jinoyat-protsessual turlari hisoblanadi[2].

V.Vandishevning mazkur fikrini, yana bir huquqshunos olim T.V.Valkova shunday ta'riflagan: "Qonunchilikdagi jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish ikki bosqichdan iborat: insonning erkin harakatlanishini faktik cheklaydigan faktik ushlab turish va bayonnoma ko'rinishida protsessual-huquqiy rasmiylashtiriladigan yuridik tusga ega ushlab turish".

K.B.Kalinovskiy shaxsni faktik ushlab turish va uni amalga oshiruvchi subyektlar va ushbu ishda himoyachining ishtirokiga yo'l qo'yilishi jihatidan farqlashni e'tirof etgan. Uning fikricha, "Faktik ushlab turish muayyan vaqtda amalga oshiriladi va u qonunchilik normalarida alohida ko'zda tutilgan, ya'ni ushlangan shaxs ichki ishlar organiga keltirilgan vaqtini hisobga olinadi. Shuni inobatga olgan holda, muayyan vakolatga ega bo'lmagan shaxslar (guvohlar, jabrlanuvchi) tomonidan ushlab turish vaqti faktik ushlab turish vaqti hisoblanmaydi. Bu shaxslar bunday vaziyatda himoyachini bu harakatdagi ishtirokini ta'minlashga majbur emaslar. Ular ushlangan shaxsni huquqni muhofaza qilish organiga olib kelinishini kechiktirilishiga yo'l qo'yishlari mumkin. Shu sababdan, faqat ushlangan shaxsni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirok etishiga imkoniyat yaratiladi va ushlab turish muddatining shu vaqtdan boshlab hisoblash maqsadga muvofiq" – deb, hisoblagan[3].

Chet mamlakatlar tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'pchilik rivojlangan g'arb davlatlarining qonunchiligida maxsus jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi yoki maxsus protsessual qaror qabul qilishning majburiyligi alohida nazarda tutilmagan.

Masalan, AQShda sudning qamoqqa olish yoki tintuv o'tkazish uchun bergan orderi jinoiy ta'qib qo'zg'atilishining protsessual akti hisoblanadi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda sudning orderisiz ushlab turish yoki qamoqqa olishga yo'l qo'yiladi, lekin bunda qamoqqa olishning qonuniyligini tekshirish uchun qamoqqa olingan shaxsni "imkon boricha zudlik bilan" sud huzuriga keltirish to'g'risidagi talabga rioya etilishi shart.

Fransiyada prokurorning vakolatiga mansub bo'lgan jinoiy ta'qibni qo'zg'atish instituti mavjud. Jinoiy ta'qibni qo'zg'atish surishtiruvga qadar emas, balki qat'iy tarzda undan keyin amalga oshiriladi. Prokuror tomonidan jinoiy ta'qibni qo'zg'atish masalasi, jumladan, sud politsiyasi tomonidan ushlangan shaxs uning huzuriga keltirilganda hal etiladi[4].

Shunday qilib, ko'pchilik rivojlangan xorijiy davlatlarda ushlab turishga o'xshash protsessual harakat jinoiy ta'qibni qo'zg'atish uchun sabab va asos bo'ladi. Tezkor-qidiruv harakatlari natijasida olingan ma'lumotlarning o'zi gumon qilinuvchiga nisbatan ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llash uchun yetarli bo'lmaydi.

Ushlab turish vaqtida jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs tomonidan ko'rsatiladigan qarshilik va jamiyat uchun xavf tug'diradigan boshqa harakatlar bartaraf etilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 39-moddasiga binoan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlab turish vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlab turish uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Ushlab turish chog'ida ba'zi toifadagi shaxslar immunitet huquqidan foydalanadilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Qaraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashi deputati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasi, boshqa sudlar sudyalari, prokuror va prokuratura

tergovchisi ushlab turish chog'ida majburlov chorasini qo'llash immunitet huquqidan foydalanadilar.

Ba'zi mualliflarning, jumladan A.Gramovning fikricha, protsessual majburlov choralari qo'llash chog'ida gumon qilingan shaxs va ayblanuvchining ijtimoiy ahvolini e'tiborga olish qonun va sud oldida barchaning tengligi prinsipiga ziddir.

Bizningcha, immunitet huquqi mavjud bo'lgan shaxslar garchi ularni ushlab turishga istisnalar bo'lsada, agarda bevosita yuqorida sanab o'tilgan holatlar mavjud bo'lsa, ularning immunitet huquqini qisman cheklash o'rinli hisoblanadi. Chunki, agarda ushlab turish vakolati mavjud bo'lgan shaxs maxsus huquqi bo'lgan shaxslarni jinoyat sodir etganligi aniqligidan dalolat beruvchi faktlar ko'rinib turgan bo'lsayu, lekin ularni vaqtida ushlab turish majburlovini qo'llamas, boshqa bir jinoyat sodir etilishiga ko'maklashishi mumkin.

Ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish, hujjatlarni talab qilish va ko'zdan kechirish ushlangan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab 24 soatdan kechiktirilmay o'tkazilishi zarur. Agar bu muddat ichida shaxs asossiz ushlab turilganligi aniqlansa, ichki ishlar organi bo'linmasining boshlig'i yoki boshqa vakolatli shaxs ushlanganni ozod qilish to'g'risida qaror chiqaradi.

Ushlab turish harakati jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar amalga oshirilgan bo'lsa, ushlangan shaxs darhol ushlab turish, jinoyat ishini qo'zg'atish, ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish to'g'risidagi qarorlar e'lon qilinadi. Ayni vaqtda, unga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 48-moddasidagi huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Ushlangan shaxs yuqoridagi qarorlar bilan tanishganligi va unga gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirilganligini tegishli qarorlarga imzo chekish orqali tasdiqlaydi. Qarorlar tanlangan yoki tayinlangan himoyachiga tanishib chiqish uchun taqdim etiladi.

Ushlangan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab yigirma to'rt soatdan kechiktirilmay so'roq qilinishi lozim. Ushbu muddatga rioya etilmagan hollarda, ushlangan shaxs ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish huquqiga ega. So'roq vaqtida ushlangan shaxsning himoyachisi ham ishtirok etishga haqli.

Ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan (erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarning haqiqiy cheklangan payti) e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin.

Ushlab turish muddatlari MDH davlatlari qonunchiligida ko'pchilik holatda 48-72 soatni tashkil etadi. Ba'zi MDH davlatlari va ko'plab rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida ushlab turish muddati 48 soat qilib belgilangan. (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 22-moddasi, Portugaliya Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi). Ayrim mamlakatlarda esa bu muddat 24 soatdan oshmasligi lozim (Belgiya, Fransiya jinoyat protsessual qonunchiligida)[5].

Fransiya jinoyat protsessual qonunchiligiga binoan, ushlab turilgan shaxs nafaqat yaqin qarindoshlariga, balki ish beruvchisiga, himoyachisiga yoki o'zi bilan birga yashayotgan shaxs ham qo'ng'iroq qilishga ruxsat beriladi. Shu bilan birga, ushbu shaxs, himoyachi yollashga bo'lgan huquq, shuningdek shifokor tomonidan ko'rikdan o'tish huquqi ham darhol tushuntirilishi belgilangan.

Mazkur normani milliy qonunchiligimizga xususan, JPKning 224-moddasining 1-qismida belgilangan asoslarga qo'shimcha sifatida alohida 6-band belgilangan holda, ushlangan shaxsni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish bandini ham

kiritish, shaxs huquqlarini himoya qilinish mexanizmini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, vakolatli organ xodimining ushlangan shaxsning muayyan kasalga chalinganligi (masalan, surunkali kasalliklar, teri kasalliklari) yoki so'g'ligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ushlab turilgan shaxs jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon turli holatlarga ko'ra tasdiqlanmasa, masalan, jabrlanuvchi va jinoyat shohidlari ushlangan shaxsni jinoyat sodir etgan shaxs sifatida ko'rsatishda xatoga yo'l qo'ysalar, gumon qilinuvchi sodir etilgan qilmishga aloqador yoki daxli bo'lmasa, surishtiruvchi yoki tergovchi jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxsni darhol ozod qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Доклад о деятельности Уполномоченного по правам человека в РФ в 2017 году // Российская газета. -2017, 16 мая; Синельщиков Ю. Насилие к задержанным: реальность и перспективы борьбы // Законность. -2017. -№1. -Б. 10-13 (См.: Международные акты. -М.: Юристъ, 2017. -Б. 178);
2. Вавдишев V.V. Уголовный процесс. -СПб.: 2016. -Б. 243;
3. Смирнов A.V., Калиновский К.В. Комментарий к УПК РФ. -СПб.: 2019. -Б. 262-263;
4. Головки Л.В. Дознание и предварительное следствие в уголовном процессе Франции. -М.: 2019. -Б.17;
5. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To'laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. – 282 bet.